IMMANUIL KANT RASIONAL DEONTOLOGIYASIDA GIPOTETIK VA QAT'IY IMPERATIVLAR TAHLILI

PhD. F.G'.Bozarova

Jizzax shahridagi Qozon (Volgabo'yi) federal universiteti filialining Yoshlar masalalari, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'lim boshlig'i

Immanuil Kant axloqiy ta'limoti deontologik (**deontologiya** yunon. deon - vazifa, burch; logos - ta'limot) nazariyaga asoslanadi. Faylasuf ta'kidlashicha, bu rasionalistik ta'limot, insonning yuksak ma'naviy darajasidagina amal qiladi. Uning asosida bosh tamoyil, axloqiy qonun vazifasini bajaruvchi, insonning "sof burch"(I.K) tuyg'usi yotadi.

Immanuil Kant har bir inson o'z xohish-istaklaridan qat'iy nazar boshqa shaxslar oldida burchlidir. Shunga o'xshash fikrni, masalan, ijtimoiy sherikchilik nazariyasi asoschilaridan biri ingliz faylasufi Tomas Xobbs (1588-1679) ham keltirgan va u aynan madaniy rivojlanish muammolariga yechim sifatida axloqni ko'rsatgan. Xobbs fikricha, axloq[43] – odamlarning bir-biri bilan o'zaro rozi bo'lib yashash qoidalari majmui hisoblanadi. Lekin, Kant yashagan davrda axloqqa utilitarizm (hatti-harakatning axloqiy ahamiyati uning foydaliligiga bog'liqligi to'g'risidagi ta'limot) nuqtai-nazaridan yondashuvlar uchrab turgan. Masalan, Devid Xyum[44] (1711-1776) va Jeremi Bentam[45] (1748-1742) qarashlarida axloq negizidagi zavq-shavq hamda baxt va rohat mohiyatan ahamiyatliroq, deb sanalgan.

Immanuil Kant fikricha esa axloqiy qonunining asosi burch, u insonning manfaatlari va xohish-istaklaridan qat'iy nazar, amal qiladigan qat'iy imperativdir. Kantning shunday qat'iy imperativlaridan biri: "inson boshqa odamlarga faqat vosita sifatida yondoshmasligi kerak, aksincha uning o'zini oliy maqsad, deb bilishi lozim".[46] Garchi bu voqe'likka zid bo'lsada, faylasuf uchun u universal tamoyil hisoblagan.

Keyinchalik, Kant inson uchun mutlaq va nisbiy xarakterga ega axloqiy tushunchalarni o'z ta'limotida talqin qilib bergan. Masalan, yolg'on so'zlashni – faylasuf **mutlaq axloqsizlik**ning bir ko'rinishi sifatida keltiradi. Ya'ni, haqiqatni aytish mutlaq burchga kiradi, yolg'on gapirmaslik kerak, garchi yolg'on haqiqatni gapirishdan ko'ra, yaxshiroq natija beradigandek ko'rinsa ham. Xuddi shunday, zulm va zo'ravonlikning har qanday turlari mutlaq axloqsizlik hisoblanadi. **Nisbiy axloqiy** tushunchalarga, masalan hayriya, sovg'a qilish kirib, bu kabi amallar u yoki bu vaziyatga moslashuvchan bo'lishi mumkin va muayyan zamon va makonda qo'llanilishi yoki qo'llamaslik mumkin.

---

[43]T. Gobbs. Begemot: O prichinax grajdanskoy voyni v Anglii (Izvlechenie iz Dialoga II). Glava VI. Uchenie o cheloveke. Etika M.: Misl', 1989.— 622.

[44] Yum David. Traktat o chelovecheskoy prirode. Perevod s angliyskogo S.I.Sereteli. Soch.v 2-x t.1996. S.652

[45] Bentham J. Deontology // Bentham J.Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 119-281.

[46] Kant Immanuil. Kritika sposobnosti sujdeniya. M.: Misl'.1994. – S.231.

Faylasuf fikriga ko‘ra, hech qachon jinsiy munosabatlar orqali muayyan maqsadlarga erishish nazarda tutilmasligi kerak. Chunki bu mazkur hodisaning axloqsizlashuviga va oxir oqibat jinsiy aloqa mohiyatan tuban xarakater kasb etishiga olib keladi. Shunday bo‘ldi ham. Zamonaviy dunyoda bu hodisaning cho‘qqisiga chiqildi ham. Feminizmda ham shu jihatdan Kant axloqiy qarashlariga yaqinlikni kuzatish mumkin. Feministlar fikriga ko‘ra, aynan fohishalik va pornografiya mohiyatan ayollarga vosita sifatida qarashning yaqqol namunasidir. Shu o‘rinda, ta’kidlash kerakki, Kant insonning oliy darajadagi maqomini e’tirof etib, xolis yondashiladigan bo‘lsa hayvonlarga xos bo‘lgan faqat instinktlar asosida yashalsa, oliy maqsadlarga zid bo‘lgan axloqsizlik bilan bir qatorda, bizning oliy vazifamiz amalga oshishi mumkin emasligiga ishongan.

Kant o‘zigacha shakllangan utilitar qarashlarni ham tahlil qilar ekan, unda asosiy muammo odamlar o‘zining axloqiy harakatlarini qandaydir foyda keltirgan oqibatlariga qarab baholashidadir[47], deb tanqid qiladi. Biz tanqidiy fikriga qo‘shilamiz, agar sizning hatti-harakatlaringiz odamlarga foydali bo‘lsa, bu yaxshi, agar aksincha bo‘lsa, yomonlik bo‘lib qolmaydi. Chunki, yaxshi amallar aslida moddiy emas ma’naviy yuksalishimizni ta’minlasagina axloqiylik kasb etadi. Ya’ni, muhtoj insonga yordam berishni shunchaki “burchim!” deb hisoblagan inson, ayni paytda, e’tirofni kutmaydi yoki “podpischik”lar, “tvit”lar, “layk”larini sanamaydi. Agar qilgan yaxshiliklari real yoki virtual hayotda e’tirof etilishini kutsa bu inson faqat rasmiy jihatdangina “fazilat sohibi”dir xolos.

Bundan tashqari, biz hatti-harakatlarimiz oqibati emas, balki sabablari ko‘proq ahamiyat kasb etadi deb, hisoblaymiz, aynan bu jihat inson axloqiyligi darajasini namoyon qiladi. Axloqiy hatti-harakatlar oqibatan, xuddi o‘yindagi kaptok kabi hamisha ham nazoratimizda bo‘lavermaydi. Sabablari jihatidan esa nazoratimizda. Ya’ni, bir insonning hayotini saqlab qolish, o‘z hayotini havf ostiga qo‘yish evaziga bo‘lsa ham amalga oshirilsa, hattoki, hayoti saqlanib qolingan inson asli axloqsiz, hatto qotil, jinoyatchi bo‘lsa ham bu axloqiylikdir. Bundan tashqari, har bir vaziyat biz yaxshi, deb o‘ylamaganimiz ham yaxshi vaziyatni keltirib chiqarishi mumkinligini nazarda tutish darkor. Shu ma’noda Immanuil Kant ham “Mantiqiy asos” asarida “....shubhasiz, yaxshi narsalar yaxshi maqsaddadir”[48] deb yozadi.

Kant **xayrixohlik** haqida ham odamlar o‘z ishini qilganlarida yaxshi fikr qilishadi, chunki ular buni o‘zlarining burchi deb bilgani, axloqiy majburiyatini his qilganidan qiladi. Bu yuksak darajadagi insoniylikdir. Masalan, aslida yuksak axloqli inson karantin qoidalariga amal qiladi, u o‘zi va atrofidagilarining hayoti uchun mas’uliyatni his qiladi, faqat bir marta beriladigan, bebaho bo‘lgan – inson umriga rahna solgisi kelmagani kabi, boshqa tomondan, oddiy askar ham xizmat burchida uloqtirilgan granataga o‘zini otib boshqalarni saqlab qolish uchun o‘z hayotini qurbon qiladi va o‘zi emas qahramon, degan nomi qoladi. Og‘ir kunida inson boshqalarga og‘irligi tushishidan havfsirab kredit oladi, to‘lay oladimi hali yo‘qmi... lekin boshqalarning tinchini buzishni xohlamaydi bu ham axloqiylik namunasi. Axloq faqat go‘zal hatti-harakatlar yig‘indisigina emas, bu o‘z-o‘ziga, nafsiga qarshi chiqish, o‘zga bir insonni o‘zidan ustun qo‘ya olish, o‘z burchiga sadoqat fazilati hisoblandi. Kant aytganidek, inson o‘z ihtiyori bilan to‘g‘ri yo‘lni tanlasa, uning xatti-harakati axloqiy fazilat nuqtai nazaridan talqin etilishi mumkin.[49]

Kant o‘zining deontologik ta’limotida bir qancha qat’iy imperativlarini taklif qiladi. **“Faqat universal qonun bo‘la oladigan maksimaga amal qiling”**. Faylasuf fikricha, biz bir ish qilishdan avval o‘zimizga: “agar hamma men kabi shunday ish qilsa, nima bo‘ladi?” deb savol berishimiz kerak. Bu bizni yaxshi amallarni ishonch bilan qilishga va yomonlikdan huddi shunday ishonch bilan voz kechishga undaydi.

[47] Kant Immanuil. Kritika prakticheskogo razuma. M.: Misl’.1994. – S.116.

[48] Kant I. Kritika chistogo razuma. Seriya: Antologiya misli. M. Eksmo 2011. S.236.

[49] Immanuel Kant. Kritik der praktischen Vernunft. Astrel. 2005. P-129.

Kantning ikkinchi “qat’iy imperativ”i **“odamlarga o‘z manfaatlaring uchun vosita sifatida emas, balki unga oliy maqsaddek munosabatda bo‘lish kerak”** deyiladi. Bu "yakuniy tamoyil" deb ham ataladi. “O‘zinga qanday munosabatda bo‘lishlarini xohlasang, boshqalarga ham shunday munosabatda bo‘l”, oltin qoidasi insoniyatni og‘ir vaziyat yoki sharoitni qabul qilishdan ko‘ra, mana shunday qoidalarga rioya qilishga undaydi.

Imperativlaridan tashqari, Kant “Ma’rifat nima?” nomli mashhur essesida axloqning tamoyili “insonni nomukammallikdan xolos qilish”[50], deb hisoblaydi. Faylasuf, odamlar ezgu ishlarini o‘zlari uchun qilishlari kerak. Aksincha, biz, aqlli insonlar sifatida, o‘zimizga muayyan bir talablarni belgilashimiz kerak. Aynan shuning uchun ham bizning eng chuqur his-tuyg‘ularimiz axloqiy qonunlarga bo‘lgan hurmatimiz va burch tuyg‘usi sifatida bo‘lsa eng oqilona yashashimiz, boshqacha aytganda, o‘zimizdan ezgu inson yasashimiz, nomukammallikdan yuksalishimiz mumkin

Bunda harakatlarimiz yaxshi yoki yomon ekanligimizni nima belgilashini aniqlashtirib olishimiz kerak. Hayot, ishlar haqiqatdan ham yaxshi ketayotganini bilishning mantiqiy yo‘li bormi? Men Immanuil Kant nazariyasini bilishdan oldin, insonlar yaxshi yoki yomon narsaning yaxshi yoki yomonligini, ijtimoiy axloq me’yorlariga ko‘ra, o‘zlari biladilar, deb o‘ylardim. Ammo, Kant qat’iy imperativlar nazariyasida yaxshilik yoki yomonlikni aniqlashga mantiqiy yondashadi va muayyan darajada umumlashtirishga yordam beradi. Kant qat’iy imperativlarini hamma joyda va hamma odamlar uchun to‘g‘ri bo‘lgan qonuniyatlar shaklida ifodalaydi.

Kant fikricha, inson aqli yordamida axloqiy qoidalarni shakllantirishga qodir. Kant bu qoidalarni ikki turga ajratadi: **shartli, majburiy hamda daxlsiz** qoidalar.

Shartli qoidalarni bajarish shaxsning ixtiyorida bo‘ladi. Masalan, har kim o‘z sog‘lig‘igi uchun g‘amxo‘rlik qilishi tavsiya etiladi, agar sog‘ligingiz haqida qayg‘urishni xohlamasangiz, bu sizning shaxsiy ishingiz. Buning uchun sizni hech kim jazolamaydi.

Ammo shunday axloqiy talablar va qonunlar borki, ular daxlsiz imperativ, deb ataladi. Har bir kishi ularni bajarishi kerak. Axloq qonuni insonning mutlaq erkinligini tartibga soladi. Kant “Sen mutlaq erkin va aqlli bo‘lmog‘ing kerak” deb aytgan bo‘lsa-da, mutlaq erkinlik oxir oqibat yaxshilikka olib kelmasligini anglab yetadi, shuning uchun u daxlsiz imperativlarni kiritadi. Mutlaq erkinlik - anarxiyaning amalda axloqsizlikka olib kelishi mumkinligini tarix ham hozirgi hayot ham isbotlab turibdi. Hegel ham o‘z davrida mutlaq erkinlikni “yirtqich hayvonga”[51] o‘xshatgani bejizga emas.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Kant axloqiy burch ta’limoti hozirgi zamonda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, Kant ta’limoti har bir inson uchun axloqiy chegaralar yupqalashayotgan bir jarayonni boshdan kechirayotgan butun insoniyat uchun zarurdir. Albatta, Kantning burch tamoyilining mavhumligini, talqinining umumiyligini inkor etib bo‘lmaydi. Inson uchun uning butun insoniyat oldidagi burchi tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Lekin inson nafaqat bir oila a’zosi, balki qaysidir davlat fuqarosi, millat, jamoa vakili hamdir, shu ma’noda faylasuf burch bilan muayyan guruhlar, jamoalar oldiga insoniy munosabatlarni qaror toptirish vazifasini qo‘yadi. Buni amalga oshirish uchun esa kuchli aqliy va ma’naviy mehnat hamda axloqan o‘sishni talab qiladi. Burch tamoyili insonni o‘z aqliga, ma’naviy imkoniyatlariga ishonishga, o‘zining yovvoyi, tabiiy instinktlarini yengishga, aql-idrokda ustun bo‘lishga, vijdoni, burchini anglashni, bir so‘z bilan aytganda, insoniylikni o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afasijev M.N. Estetika Kanta. – M.: Nauka, 1975.
2. Asmus V.F. Nemeskaya estetika XVIII veka. M., 1962.
3. Biychkov V.V. Estetika. – M.: Knorus, 2012. -528 s.

[50] Kant, Immanuil Sochineniya v shesti tomax. M., "Misl’". T. 6.- 1966. - S.25-36

[51] Gegel G.V.F. Sochineniya. T.4. Pod.red.M.Lifshisa. M.: Iskusstvo. 1973. –S.167.

4. Byork E. Filosofskoye issledovaniye proisxojdeniya nashix idey vozviyshennogo i prekrasnogo.M.: «Isskustvo» 1979. – 26 s.
5. Guliyga A.V. Nemeskaya klassicheskaya filosofiya. – 2–ye izd., ispr. i dop. – M.: Rolf, 2001.
6. Gazali Abu Xamid. “Voskresheniye nauk o vere”. M.,”Nauka”, 1980. – 234 s.
7. Guliyga A.V. Kant . Jizn zamechatelniyx lyudey. M. Molodaya gvardiya. 2005. – 280 s.
8. Kant . Leksii po etike. — M.: Respublika, 2000. – 431 s.
9. Kant I. Kritika chistogo razuma. Seriya: Antologiya miysli. M. Eksmo 2011. 736 s. Sorokin P. Chelovek. Sivilizatsiya. Obshyestvo. M., 1992.
10. Suslova L. A. Filosofiya I. Kanta(Metodologicheskiy analiz): Ucheb. posobiye dlya vuzov.— M.: Viyssh. shk., 1988. — 224 s.